

2.3. Shartnomaning umumiy narxi QQSsiz **260,000 (ikki yuz oltmish ming)** so'mni tashkil qiladi.

2.4. Abonent mazkur Shartnoma kuchga kirgan paytdan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida Operatorning hisob raqamiga Shartnoma narxining 30 foizi miqdoridagi pul mablag'larini o'tkazish orqali Operator Xizmatlari narxining dastlabki to'lovini amalga oshiradi. Shartnoma umumiy narxining 70 foizi miqdoridagi qolgan summasini Abonent Hisob-faktura tasdiqlangandan keyin 5 (besh) bank kuni ichida to'laydi.

2.5. Agar Abonent tomonidan Hisob-faktura qabul qilinmagan va 10 (o'n) ish kuni ichida uni qabul qilishning asoslangan rad javobi berilmagan bo'lsa, u holda hujjatlar qabul qilingan va ikki Tomonlar tarafidan tasdiqlangan, Xizmatlar esa ko'rsatilgan hisoblanadi.

2.6. Mazkur Shartnoma bekor qilingan hollarda qayta hisob-kitoblar va to'lovlar masalalari Tomonlarning kelishuvi bo'yicha yoki Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida belgilangan tartibda hal qilinadi.

3. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

3.1. Operator:

3.1.1. Operatorning hisob raqamiga dastlabki to'lov kelib tushgan paytdan boshlab 5 ish kuni ichida Abonentga ochiq va yopiq ERI kalitlarini o'z ichiga olgan himoyalangan apparat vositasini taqdim etish va Abonent mazkur Shartnoma shartlariga rioya qilganda Xizmatlar ko'rsatishni boshlash.

3.1.2. Abonentni dasturiy ta'minotni to'laqonli ekspluatatsiya qilish va iste'mol qilinadigan Xizmatlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik qo'llab-quvvatlash.

3.1.3. Abonentni Xizmatlarni taqdim etish normal rejimining buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan reja bo'yicha texnologik ishlarni o'tkazishdan 24 soat oldin va avariya vaziyatlar yuzaga kelgan holda 1 soat oldin elektron pochta yoki **ijro.gov.uz** rasmiy saytida bu ishlarning o'tkazilishi to'g'risida axborot xabarini berish orqali xabardor qilish.

3.1.4. Agar Abonent mazkur Shartnoma shartlarini buzgan yoki favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq sabablarga ko'ra elektron pochta yoki Shaxsiy kabinetda rasmiy xabarni berish orqali elektron hujjat ko'rinishida Abonentni Xizmatlar ko'rsatishning to'xtatilishi to'g'risida oldindan ogohlantirish.

3.1.5. Axborotni uzatish kanallarining xavfsizligi, Tizimdagi axborot va hujjatlarning saqlanishi, butunligi va ishonchligini, shuningdek Foydalanuvchi shaxsiga doir ma'lumotlar va Tizimni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq holda olingan boshqa axborotning himoyalanihini ta'minlash.

3.1.6. Tizimdan foydalanish davomida olingan hujjatlarni har qanday ma'lumotlarni buzmaganda Abonentdan olingan xuddi o'sha ko'rinishda qabul qilish, saqlash va foydalanishini ta'minlash.

3.1.7. Mazkur Shartnoma doirasida Tizimdan olingan har qanday axborotning konfidensialligini saqlash majburiyatlariga ega.

3.2. Abonent:

3.2.1. Tizimdan foydalanish qoidalari, Tizimda hujjatlarni qabul qilish, tekshirish va jo'natishga qo'yiladigan texnik talablarga qat'iy rioya qilgan holda harakat qilish.

3.2.2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga va Tizimdan foydalanish qoidalarga muvofiq unga topshirilgan ERI kalitlarining saqlanishini va konfidensialligini mustaqil ta'minlash majburiyatiga ega.

3.3. Operator quyidagi huquqlarga ega:

3.3.1. Quyidagi hollarda Xizmatlarni taqdim etishni bir tomonlama tartibda to'xtatib turish, shu jumladan Tizimdan foydalana olishni blokirovkalash orqali:

- umumiy davomiylikdagi 5 (besh) kalendar kunidan ko'p Xizmatlarga haq to'lanmaganda;
- Abonentni xabardor qilgan holda Tizimda reja bo'yicha va/yoki rejadan tashqari ishlar o'tkazilganda;

- Abonent tomonida Tizim xavfsizligiga tahdidlar aniqlanganda.

3.4. Abonent quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. O'zR ijro, sud yoki qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan kiritiladigan ehtimoliy cheklovlarni hisobga olgan holda ushbu shartnomada ko'zda tutilgan uzluksiz Xizmatlardan foydalanish.